

QAMCHIBEK KENJA HIKOYALARIDA “OTA” OBRAZI TALQINI

Oygul Mamatsalayevna MATKURBANOVA

filologiya fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

tayanch doktorant

Alisher Navoiy nomidagi

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

e-mail: matkurbonova93@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan an'anaviy obraz – “ota” obrazi Qamchibek Kenja hikoyalari misolida atroflicha tahlil etiladi. Adibning “Fotiha”, “O'g'ilning tashvishi”, “Baliq ovi”, “Sog'inch” va “Alam” kabi hikoyalarida “ota” obrazining asar syujetida muhim o'rinni egallashi, uning yosh, xarakter va ruhiyat jihatidan turlicha badiiy inkishof etilisi, Qamchibek Kenjaning otalarga xos va mos portret yarata olish mahorati ochib beriladi.

Tayanch so'zlar: hikoya, badiiy obraz, talqin, syujet, yozuvchi mahorati, badiiy so'z, xarakter, portret.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА “ОТЦА” В РАССКАЗАХ

КАМЧИБЕКА КЕНДЖИ

Айгуль Маматсалаевна МАТКУРБАНОВА

базовый докторант

доктор философии по (PhD) филологическим наукам

университет узбекского языка и литературы

Ташкент, Узбекистан

e-mail: matkurbonova93@mail.ru

Аннотация

В данной статье на примере рассказов Камчибека Кенджи подробно анализируется традиционный образ “отца”, имеющий важное значение в узбекской литературе. В таких его рассказах, как “Помолвка”, “Беспокойство сына”, “Рыбалка”, “Тоска” и “Обида”, образ “отца” занимает важное место в сюжете произведения. Образ “отца”, отраженный в этих рассказах, художественно разработан по-разному в зависимости от возраста, характера и менталитета. В процессе анализа выявляются мастерство Камчибека Кенджи по созданию адекватного отцовского портрета.

Ключевые слова: рассказ, художественный образ, интерпретация, сюжет, писательское мастерство, художественное слово, персонаж, портрет.

Butun olamni so'z vositasida keng aks ettiradigan badiiy adabiyotning eng muhim obyekti inson sanaladi. Ijodkor insonni ota-ona, aka-uka, opa-singil, do'st-u yor kabi turlicha obrazlar asnosida tasvirlaydi. Badiiy obraz darajasiga ko'taradi.

Ayniqsa qalamga olinadigan turfa obrazlar ichida “ota” obrazini yaratish ijodkor ahldan soʻzga yanada mas’uliyat bilan yondashishni taqozo etadi. Jahon adabiyotida ota siymosi alohida oʻrin tutgan asarlarga misol qilib, Frans Kafkaning “Ota hukmi”, Fridrix Shillerning “Qaroqchilar”, Turgenevning “Otalari va oʻgʻillar”, Mario Pyuzoning “Choʻqintirgan ota”, Onore de Balzakning “Gorio ota” kabi asarlarini keltirishimiz. Shuningdek, oʻzbek adabiyotida ham ota obrazini yaratgan ijodkorlar talaygina. Jumladan, Odil Yoqubovning “Ota izidan”, Omon Muxtorning “Oppoq qor”, Botir Kamolning “Ota mehri”, Shukur Xolmirzayevning “Oʻzbek bobo” asarlarida ota obrazi badiiy talqin etiladi. Ayniqsa, bir “Ota” nomi ostida yaratilgan yozuvchilar Ulugʻbek Hamdam romani, Nabi Jaloliddin va Xoliyor Safar hikoyalari diqqatga sazovordir.

Hikoyachilikdagi sermahsul ijodi bilan taniqli boʻlgan Qamchibek Kenja asarlari syujetida ham asosiy obyekt inson boʻlib, ayniqsa, “ota” obrazi alohida ajralib turadi. Biz buni uning “Fotiha”, “Oʻgʻilning tashvishi”, “Baliq ovi”, “Sogʻinch” va “Alam” kabi hikoyalari misolida koʻrishimiz mumkin.

Ota – bu soʻzni eshitganda har bir insonning koʻz oʻngida oilaning ustuni, farzandlari va ularning kelajagi uchun jonini berishga tayyor boʻlgan shaxs timsoli gavdalanadi. Oʻzbek milliy mentalitetini bor boʻy-basti bilan tasvirlash uchun bu obrazdan juda unumli foydalaniladi. Zero, oʻzbek xalqi mentalitetini va oilaviy qadriyatlarini “ota” siymosisiz tasavvur etish qiyin. Ijodkor “ota” obraziga murojaat etar ekan, unga turli rakursdan nigoh tashlaydi. Yaʼni otalarga xos xarakter-xususiyatlar yozuvchi yoki shoirni soʻz ummonidan yanada diqqat va maʼsuliyat bilan dur-u javohirlarni terishga undaydi. Qamchibek Kenja hikoyalaridagi “ota” obrazi ham oʻzining xalqchilligi, samimiyligi bilan koʻzga tashlanadi. Yozuvchi ijodiga oid aksariyat hikoyalarda “ona” obrazi emas, asosan “ota” obrazi, otaning ogʻliga boʻlgan munosabati, mehri, ichki kechinmalari juda goʻzal badiiy boʻyoqlarda aks etadi. Bunga sabab yozuvchining onasidan erta judo boʻlib, hayot yoʻllarining asosiy qismini otasi bilan kechirganida koʻrinadi. Ijodkor insonning oʻz boshidan kechirganlari oʻzining yozilajak asarlari uchun oltinga teng zahiralaridir. Ular muallifning maqsadiga qarab turli shaklda, turli mutanosiblikda

evrilib, ijod uchun eng ishonchli ozuqa bo'lib xizmat qiladi. Zero, mashhur yozuvchi Ekzyuperi aytganiday: "Har qanday ijodkor yozishdan oldin yashashi kerak" [5;72]. Shuning uchun ham Qamchibek Kenja hikoyalarida qalamga olgan "ota" obrazi yosh jihatidan farqli bo'lsa-da, o'zining jonli tasvir kuchi bilan o'quvchi qalbiga kirib boradi. Jumladan, adibning "Baliq ovi" va "Alam" nomli hikoyalarida o'rta yoshdagi, "Fotiha", "O'g'ilning tashvishi" va "Sog'inch" nomli hikoyalarida esa nuroniy yoshdagi "ota" obrazi namoyon bo'ladi.

Ayniqsa, ota va o'g'il munosabati yuqorida nomlari tilga olingan barcha hikoyalarda turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, "Alam" hikoyasida yozuvchi mohirlik bilan o'zaro zid xarakterdagi "otalar" obrazini chizadi. Hikoyada zamonamizning dolzarb mavzusiga aylangan farzand tarbiyasida otaning o'rnini, ota va o'g'il munosabati badiiy aksini topadi.

Hikoya qahramonlari – "Chimyon" dam olish, sog'lomlashtirish markaziga tashrif buyurgan Ravshan va uning otasi, shuningdek, Solijon aka va uning arzandasi Dilshodbek. Solijon aka – nafaqat farzand tarbiyasiga, balki hayotga ham yengil ko'z bilan qaraydigan, o'g'lining istaklarini darrov muhayyo qiladigan hotamtoylardan bo'lib, hikoyada: "Solijon aka odamshavanda, avvalo, u juda so'zamol; har bir odam, har bir voqea, yo oddiy gap munosabati bilan latifa to'qib tashlaydi; Odamni tong qoldiradigan xurmacha qiliqlari ham bor" [2;150], - deya ta'riflanadi. Bu obraz orqali yozuvchi o'zi qalamga olgan davrdagi ba'zi insonlarning ma'naviy qashshoqligini ochib beradi. Solijon akaga o'xshagan insonlar hayotda hamisha moddiyatni ustun qo'yadi, "Pul bo'lsa, changalda sho'rva" qabilida ish tutadi, ayniqsa bola tarbiyasiga ma'suliyat bilan yondashmaydi. O'g'li bilan munosabatda og'zidan tushganini muhayyo qiladiganlar toifasidan. Shu qadar mehribonki, hatto *"Otasi: "Uni yeysanmi, buni yeysanmi", deb og'ziga tiqquday bo'ladi, o'g'li tanlab yeb-ichib, bas qilgandan keyingina undan ortganini o'zi yeydi"*. O'zini oqlash uchun: " – O'zi bittagina, shuniyam erkalatmasak, kimni erkalatamiz. Hammamiz ham shu, bola-chaqa deb yuribmiz-da",- deya ta'kidlaydi. Yozuvchi bu toifadagi insonlarga o'zining

e'tirozini roviy tilidan bayon etadi: “- *Papalab o'stirilgan bola mo'rt, jur'atsiz odam bo'lib yetishadi, - dedim o'zimni bosolmay*” [2;159 b.].

Ravshanning otasi esa Solijon aka xarakteriga zid o'laroq og'ir-bosiq, har masalada yetti o'lchab bir kesadiganlardan. U hikoya roviysi bo'lib, ismi qayd etilmaydi. “Yozuvchining, garchi shaxsan tanilmasa ham, asarlarini o'qib, qanday tabiatli shaxs ekanini g'oyibona bilish, tasavvur qilish mumkin. Chunki u asarlarida asosan o'z tabiatini, ruhini tasvirlaydi” [1;176]. Qamchibek Kenja ham ushbu obrazda o'zining psixologik ruhiyatini akslantiradi. Biografik metod asosida tahlil etadigan bo'lsak, yozuvchi ham xuddi Ravshanning otasiday kamgap, kamtar va vazmingina. Qamchibek Kenja farzand tarbiyasidagi yozuvchini qiynayotgan muammolarga ushbu obraz orqali javob qidirishga harakat qiladi.

Roviy farzand tarbiyasiga ma'suliyat bilan yondashadi. Yozuvchi bu obraz orqali otaning farzandi uchun qanchalik qattiqqo'l bo'lsa, shunchalik mehribon, jonkuyar ekanligini tasvirlaydi. Hikoya boshida kasaba uyushmasining ikki kishilik yo'llanma taqdim etganida otaning xursandlik bilan: “- *Ayni muddao-ku, - dedim xursandlagimni yashirmay. - Bitta og'limiz nimjonroq*” [2;146],- deya aytgan so'zlarida bir otaning bolasining sog'ligi uchun naqadar jonkuyar ekanligiga guvohi bo'lamiz. Shuningdek, hikoya davomida ota og'liga turli mulozamatlarni ham joyiga qo'yadi-ki, biz uning mehrini his qilamiz:

“Ikki kishilik xonaga kirgach, “Qalay?” – deb so'radim bosh tomonidagi taxta to'sig'iga yap-yangi, guldor sochiqchalar tashlangan yumshoq, orasta karavotlarga ishora qilib. -Vo'! – dedi Ravshan bosh barmog'ini niqtab va xuddi uydagidek bo'ynimdan quchoqlab, yuzlarimda cho'pillatib o'pdi.

-Qani, tanlasinlar joyni, - dedim o'g'limning sochini to'zg'itib.” [2;147]; *“Ravshan men uchun oq-qoraning farqiga yetadigan rosmana hamroh, sirdosh hamxona... U bilan maslahatlashishlar (“xo'sh, endi nima qildik, Ravshanjon?”), shashka o'ynash (“marhamat, shahzodam, yurish o'zlaridan”), ertalabki muomala (“qani, turmaydilar mi, osh vaqti bo'p ketdi-yu...”)* g'oyat zavqli, g'oyat maroqli...” [2;149]. Hikoyadagi yoshiga to'g'ri kelmasa-da, Ravshanning kinoga tushish uchun qilgan xarxashalarida yoki soat-u kiyim-kechaklar borasida qilgan

bolalarcha xatti-harakatlariga otaning qa'tiy rad javoblari farzand tarbiyasidagi qattiqqo'llikni namoyon etadi.

Bilamizki, farzand tarbiyasi jamiyatimizning dolzarb muammosi hisoblanadi. Har narsaning me'yori yaxshi deganlaridek, to'g'ri tarbiya berishda ham yuqoridagi otalarga xos xususiyatlarning me'yori ila yondashish maqsadga muvofiq. Yozuvchi "Alam" hikoyasida aynan shu me'yor haqida kitobxonga so'z ochadi. Go'yo tarozining ikki pallasi bo'lgan Solijon aka va Ravshanning otasi obrazlari misolida otalarga xos mehribonchilik-u qattiqqo'llik, jonkuyarlik-u xotamtoylik hislatlarining me'yoriga mas'uliyat bilan yondashish zarur ekanligini qiziqarli syujet asosida badiiy talqin etadi.

Qamchibek Kenjaning "Baliq ovi" hikoyasida qalamga olingan ota obrazi "Alam" hikoyasidan farqli o'laroq sobiq tuzum davridagi xo'jalik mudirini gavdalantiradi. Ismi Bo'ronbek bo'lgan bu obraz hikoyada personaj vazifasini o'tasa-da, bosh qahramonning fojeali o'limiga sababchi bo'ladi. Ya'ni o'g'li Komilbek otasining bir og'iz gapi bilan sovuq bo'lishiga qaramasdan baliq tutishga ketadi va suvga tushib mo'ljaldagi baliqlarni tutib keladi. Ammo sovuq yeb, bu yorug' olamni tark etadi.

Xo'sh, fikr qiladigan bo'lsak, Bo'ronbek aslida ham jigargo'shasining fojeali taqdiriga qay darajada aybdor? Hikoyadagi bu ota obrazi nahotki shu qadar sovuqqon, mehmonlarning ko'nglini olish uchun, qishning zahri ketmay turib, bolalarini baliq ovlashga jo'natsa? Bolalarining sog'ligi uning uchun ahamiyatsiz bo'lishi mumkinmi? Nahotki u shu qadar qattiqqo'lki, nafaqat farzandi, balki mushtipar ona ham otaning noo'rin hukmiga qarshi chiqolmasa? Nahotki, ota oilasiga nisbatdan befarq, mas'uliyatsiz bo'lsa? Hikoyani o'qiyotgan kitobxon tafakkurida yuqoridagi savollar majmua urishi, ushbu otaga nisbatan nafrat uyg'onishi mumkin. Hikoyani xolis tahlil etar ekanmiz, aslida esa otaga qo'yilgan bu ayblovlar yetarli asosga ega emas. Tog'ri, ota mehmondo'st, uyiga tashrif buyuruvchilar e'tirofidek, tanti ulfati odam. Mehmondo'stlik esa millatimizga xos bo'lgan qadriyatimizdir. Hikoya boshidanoq ularning uyiga mehmonlar oqimi serqatnov ekanligi roviy Bo'ronbekning o'g'li Kamronbek tilidan ochiqilanadi:

“Uyimizga tez-tez mehmon kelib turadi” [4;3]. Bo‘ronbek esa mehmonnavozlikning oshiqchasi bilan qoyillatishga harakat etadiganlardan. U mehmonlarni turli noz-ne‘matlar bilan siylash orqali birga ketar chog‘ida ham quruq qaytarmaydi. Ayniqsa xo‘jayini tashrif buyursa, hushomadgo‘ylik-u ulfatchilikni ham do‘ndiradi. Baliqxo‘r deya tilga olingan xo‘jayinning oxirgi tashrifi esa fojeaning yuz berishiga sabab bo‘ldi. Ota uning baliq yeyish istagini rad etishni, hattoki o‘ylab ham ko‘rmadi. Sovuq bo‘lsa-da, o‘gillarini baliq ovlashga jo‘natdi. Bu oilada uning gapi qonun. O‘gli Komilbek otasiga “yo‘q” demadi. Onasi ham havo sovuqligini eslatga-da, eriga qarshi chiqmadi. Lekin ota beshafqat yoki shu qadar bag‘ritosh emas, ayoliga baliqni to‘rda ovlash vajini ko‘rsatib, o‘gliga otalarcha mehr bilan: *“Issiqroq kiyinvol, o‘g‘lim...”* deya aytdi. Otaning farzandlariga bo‘lgan mehrining kuchini biz, afsuski, fojea sodir bo‘lgandan keyin, o‘g‘li Komilbekning joni uzilayotgan damlarda his qilamiz: *“Hammamiz uning atrofida edik. Ayniqsa, otam uning oldidan bir qadam ham jilmadi desam bo‘ladi. O‘zi majburlab ozgina sholg‘om sho‘rva, qatiq ichirdi”*; *“...Lekin otam miq etmas, gunohkor bola, bechora odamday iltijoli, ilinjli nigohini akamdan uzmay, mo‘ltillab o‘tirardi”*; *“...otam bir qo‘lida akamning engagini ushlab, ikkinchi qo‘li bilan hadeb uning qovoqlarini silar, “hiq-hiq” qilganida yelkalari titrab, ikki yuzidan shovillab yosh quyilardi”* [4;8]. O‘g‘lidan judolik otaga shu daraja ta’sir qildiki, u o‘zini yo‘qotib qo‘yadi: *“Otam gangib qolganday, kim gapirsa o‘shaning og‘ziga qarardi. U nuqul meni bag‘riga bosar, yonidan jildirmas, oldin hech qilmagan mehribonchiliklarini qilardi”* [4;9].

Yozuvchi “Baliq ovi” hikoyasida o‘zbek otasining fazilati-yu nuqsonlarini ochib berishni maqsad qilmagan, butun millatga xos bo‘lgan mehmonnavozlikning, ortiqcha mulozamatning jamiyatimiz uchun zararini Bo‘ronbek misolida namoyon etgan. Yuqoridagi misollar asnosida ko‘ramizki, “Baliq ovi” hikoyasida tasvirlangan ota obrazi hushomadgo‘ylikda me’yorni oshirsa-da, insoniyligini yo‘qotmagan, garchi xatosini kech bo‘lsa-da anglaydi, oilasini qadrllovchi mehribon ota sifatida gavdalanadi. Judolikdan so‘ng oilasining huzur-halovati uchun qadrlı qishlog‘ini tark etib, shaharga ko‘chib ketadi.

Qamchibek Kenjaning “Fotiha” hikoyasi ijtimoiy mavzudagi ijod namunalaridan bo‘lib, unda o‘g‘lidan baxtsiz hodisa sabab ajralgan ota obrazi qalamga olinadi: “Uch kundirki, gurkirab o‘sib kelayotgan yoshida avtohalokatga uchrab halok bo‘lgan marhumning oltmish ikkiga kirgan basavlatgina otasi ko‘chaga suv septirardi” [2; 471]. Hikoya qahramoni o‘spirin yoshdagi yolg‘izgina o‘g‘lining o‘limini tabiiy holda qabul qiladi. Yozuvchi ota ruhiyatidagi vazminlikni quyidagi tarzda ifodalaydi: “*Ota fotihaga keluvchilarning ko‘ngil so‘rashlariga, taomil yuzasidan bildirgan hamdardliklariga naridan-beri, “Xa, endi qandoq qilamiz, Ollohning irodasi, poyqadamlaringga rozi bo‘linglar”, deya javob qaytarar...*” [2; 471]. Har holda, har qanday inson boshiga bir kunmas-bir kun yetib keladigan bu hodisani tabiiy qabul qilish tuyg‘usini tarbiyalash ham badiiy adabiyot zimmasidagi ishdir. [1;35] Lekin shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi-ki, hali o‘n to‘qqizga ham kirib ulgurmagan yolg‘izgina o‘g‘lidan judolik nahotki ota uchun shu qadar yengil qabul qilinsa? Hikoyadagi shu jihatlar yozuvchi tomonidan yetarlicha pishitilmagan. Kitobxon ota qalbida kechayotgan ayriliq dardini his qilmaydi. Aksincha, otaning harakatlari o‘quvchida unga nisbatan hayratni oshiradi. Chunki ota jigarbandining adog‘ida kuyib yonmaydi, faryod chekmaydi. U o‘g‘lini haydovchisi xizmat mashinasi bilan urib yuborgan viloyat rahbarlaridan birining tashrifini fotihada kutadi. Bu haqida dafnning ertasiga haydovchi xabar berib, qilgan mudhish aybi uchun uzr so‘rab, qo‘lidan keladigan barcha yordamga tayyorligini aytgan edi. Fotiha marosimlari an‘analarga mos va xos tarzda o‘tadi, ota rahbarni ilhaq bo‘lib kutadi, uning uchun alohida tayyorgarlik qildiradi, kelishiga ishonadi, umid qiladi. Ammo kutilgan mehmon tashrif buyurmaydi. Bu holatni ota: “*...Kelsa kelar, kelmasa, yo‘q. Nima, u kelsa o‘g‘lim tirilib qolarmidi. Boraman deb aytirib yuborgani uchun... o‘ziga yarasha izzat-hurmatini qilib qo‘yaylik, devdim-da*” [2; 473], - deya qarshi oladi. Bizningcha, yozuvchi “Fotiha” hikoyasida otalarga xos bo‘lgan vazminlik, tantilik va soddadillikni namoyon etadi.

“O‘g‘ilning tashvishi”, “Sog‘inch” hikoyalarida ham nuroniy yoshdagi otalar obrazi misolida yuqoridagi vazminlik, soddalik bilan birga mardlik, ota

mehri haqida soʻz boradi. Ushbu hikoyalarda syujet voqealari ota va oʻgʻil orasidagi kechadi. “Oʻgʻilning tashvishi”da fan nomzodi boʻlgan oʻgʻil, oʻz kuchiyu mehnati bilan emas, otasining sharafi orqasidan mashina olishni koʻzlaydi. Otasi yetti marta jangga kirgan, ogʻir jarohatlanib, yarador holda Ona vataniga qaytgan urush qatnashchisi. Ammo uning faxriy inson, urush qatnashchisi ekanligi faqatgina oʻz oilasi tomonidan eʼtirof etiladi. Chunki buni tasdiqlovchi hech qanday hujjat yoʻq. Tegishli idoralarda, arxivlardagi hujjatlarda ham urush qatnashchisi sifatida otaning ismi, sharifi qayd etilmagan. Qayd etilgani esa turli xil vajlar bilan saqlanib qolinmagan: *“Bu nima degan gap oʻzi? Urushdan ikkinchi grupp invalidi boʻlib qaytgan odamning hujjati yoʻqolib, nomi oʻchib ketsa-yu, hech kim hech narsa bilmasa!”* [2; 91]. Yuqoridagi oʻgʻilning oʻrinli dashnomi otasini tegishli idoralarga qoʻyarda-qoʻymay olib kelib, kerakli hujjatlarni topolmay jigʻibiyroni chiqqanida aks etadi. Ota bu holatdan xunob boʻlmaydi. U bu masala yuzasidan vaqtida harakat qilib koʻrgan, ammo hafsalasi pir boʻlgan. Avvalo oʻzining soddaligidan koyinadiki, bitta chorsiga tugilgan oilaviy hujjatlar orasida harbiy билет ham uyga tushgan oʻgʻri tomonidan oʻmarilgan. Aslida ota shunday mard, vatanparvar, halol va kamtar insonki, uning uchun faxriy “urush qatnashchisi” deya eʼtibor-u eʼtirofning yoki shu sababdan beriladigan oshiqroq nafaqa pulining keragi yoʻq. U buning uchun jangga kirgan emas:

“ -Yotgan gosptalingizni eslolmaysizmi, ota? – yana yurak yutib soʻradi Hamroyev ilinjlardan hamon voz kecholmay.

-E, qayoqda deysan? U paytda koʻzimga gosptalning nomeri koʻrinarmidi. Uning ustiga, endi bitta gosptalga kirganimizda “Gumm!” etadi-yu, inqillatib boshqa joyga olib ketishadi...

-Xizmat qilgan harbiy qisimingizning nomeriniyam bilmaysiz-da, a?

-E, qiziq gapni gapirasana-e, oʻgʻlim... Urushda yengdik. Omon qolganlar qoldi. Oʻlmasak nafaqa berishadi, deb urushga kiribmizmi? Umuman, tan-joni sogʻ odamga nafaqaning nima keragi bor?! Qarib, ishga yaramay qolganda boshqa gap... ” [2;95].

Yuqorida tahlilga olgan hikoyamiz yozuvchining biografiyasi bilan bog‘liq. Aslida hikoya qahramoni uning otasi Kenjaboy Umrzoq o‘g‘li. Bu haqida yozuvchining “Inson farishta emas” nomli avtobiografik asarida ochiqdanadi: *“Kimdir Leningrad arxiviga xat yozish kerak dedi, yozdik, lekin u yoqdan umuman sas-sado kelmadi. Men shu mavzuda “Soliyevning tashvishi” (hikoyaning dastlabki sarlavhasi) degan hikoya yozdim-da, qidiruvga chek qo‘ydim”* [3; 43].

Qamchibek Kenjaning “Sog‘inch” nomli hikoyasi ham biografik xarakterga ega. Yozuvchi oliygohda o‘qish sababidan tug‘ilgan joyi Andijondan uzoqda poytaxt Toshkentda tahsil olgan. O‘qish yillari va undan keyingi bir necha yillar davomida padari buzrukvoridan ayro yashashga, qadrli maskani – uyiga hayot tashvishlari sabab kam tashrif buyurgan. Sog‘inch hisi hamisha unga azob bergan. Buni yozuvchi “Sog‘inch” hikoyasi orqali tasvirlaydi. Hikoya qahramoni - *Egamberdi qishloqqa har zamon-har zamonda borar, har gal uni otasi quvonch bilan kutib olar, umid bilan kuzatib qolar edi* [4; 53].

Ushbu hikoyadagi ota obrazi xarakterida yuqorida tahlilga tortilgan otalar obraziga xos umumlashma jihatlar mavjud. Bular: vazminlik, halollik, oilaparvarlik. Eng asosiy jihat ota farzandlarining istiqboli uchun hayotning barcha og‘irini yelkasiga oladi. Biz bunda otaning mehrini his qilamiz, jonkuyarligiga tan beramiz.

Egamberdi uyiga kelganida, ota tinib-tinchimay bog‘dagi yumushlar bilan band bo‘ladi. O‘g‘li bilan choy ustida hol-ahvol so‘rashib, birgalikda yana ishlar bilan band bo‘lishadi. Uyiga qilgan shu qisqa tashrifi mobaynida Egamberdi otasini kuzatadi, birgalikda ishlashadi, uning keksayib borayotgan bo‘lsa-da, uyning tashvishlarini uning yelkasidan ololmayotganidan iztirob chekadi. Ammo ota bu holatidan hech nolimaydi. Farzandining toleyi uchun har qanday mehnat-u mashaqqatga chidaydi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Qamchibek Kenja “Fotiha”, “O‘g‘ilning tashvishi”, “Baliq ovi”, “Sog‘inch” va “Alam” kabi hikoyalarida haqiqiy o‘zbek

otasining badiiy qiyofasini mahorat bilan chizgan. Otalarga xos bo'lgan jihatlarni qiziqarli syujetlar orqali namoyon eta olgan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2018.
2. Kenja, Qamchibek. Bir kecha-ming kecha. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
3. Kenja, Qamchibek. Inson farishta emas. – Toshkent: Yosh avlod matbaa, 2023.
4. Кенжа, Қамчибек. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2007.
5. Йўлдошев Т. Камолотнинг олис йўли. – Тошкент: Наврўз, 2014.